# AMERIKA ADABIYOTIDA ROMANTIZM DAVRI TAVSIFI

**Rasulova Soxiba Ulug‘bekovna**
Acting Associate Professor, PhD
Samarkand State Institute of Foreign Languages
E-mail: rasulovasokhiba@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada romantizm adabiy oqimining yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning Yevropa va jahon adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Romantizmning falsafiy-estetik tamoyillari, inson ruhiyati, his-tuyg‘ular va ideal hayot haqidagi qarashlari yoritilgan. Shuningdek, nemis, ingliz, fransuz va rus romantizmi namoyandalari ijodi misolida romantizmning milliy xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada romantizmning o‘zbek adabiyoti va san’atidagi aks-sadosi ham ilmiy jihatdan asoslangan holda bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** romantizm, adabiyot, estetik qarashlar, romantik qahramon, ideal obraz, Yevropa adabiyoti, romantik estetika, badiiy tafakkur, inson ruhiyati, romantik ijod.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются возникновение, этапы развития и значение романтизма в европейской и мировой литературе. Освещаются философско-эстетические принципы романтизма, особенности изображения человеческой души, чувств и идеального мира. На примере творчества представителей немецкого, английского, французского и русского романтизма раскрываются национальные особенности данного литературного направления. Также анализируется отражение романтизма в узбекской литературе и искусстве.

**Ключевые слова:** романтизм, литература, эстетические взгляды, романтический герой, идеальный образ, европейская литература, романтическая эстетика, художественное мышление, человеческая душа, романтическое творчество.

**Annotation:** This article examines the emergence, development, and significance of Romanticism in European and world literature. It highlights the philosophical and aesthetic principles of Romanticism, focusing on human emotions, spirituality, and the concept of the ideal world. The national characteristics of German, English, French, and Russian Romanticism are analyzed through the works of prominent Romantic writers. The article also discusses the influence and reflection of Romanticism in Uzbek literature and art.

**Keywords:** Romanticism, literature, aesthetic views, romantic hero, ideal image, European literature, romantic aesthetics, artistic thinking, human spirituality, romantic creativity.

XVIII asrning 70-yillarida Yevropa romantizm adabiyoti shakllandi. Badiiy adabiyot va san’atdagi ijodiy yondashuv, romantizm ko‘plab sohalarda, ya’ni adabiyot, san’at va rang tasvirda o‘z ko‘rinishini namoyon qildi. 1789-1794 yillardagi birinchi fransuz burjua revolyutsiyasi bevosita Yevropada inqilobiy harakat bilan burjua munosabatlarini yuzaga keltirdi.

V.G.Belinskiy aytganidek, romantizmning ildizlari qadim zamonlar (antik adabiyot)ga borib taqaladi. Qadimgi romantizm metod holida emas, balki unsur, tendensiya (oqim) tarzidagi romantizm (to‘g‘rirog‘i romantika) bo‘lgan. Badiiy adabiyotdagi romantika necha-necha asrlik tarixga ega. “Romantizm Ovrupo va Amerika mamlakatlari adabiyotlaridagina emas, balki rus adabiyotida, Sharq xalqlari adabiyotlarida, shu jumladan, o‘zbek adabiyotida ham chuqur ildiz otgan”[1,522].

Romantik yozuvchi qandaydir go‘zal va mukammal hayotni orzu qiladi, ammo o‘z orzusidagi turmush tarzini mavjud borliqdan topa olmaydi. O‘z atrofidagi muhitdan norozi bo‘ladi, uni tasvirlashdan ko‘ra xayolidagi go‘zal hayotni aks ettirishni afzal deb biladi. Romantizmning yirik vakillaridan biri Jorj Sand realist yozuvchi O.de Balzak bilan qilgan suhbatida shunday degan: “Siz insonni hayotda qanday ko‘rsangiz shunday, aynan tasvirlaysiz. Men bo‘lsam, insonni qanday ko‘rishni xohlasam, shu taxlitda tasvirlayman”[2,187] Demak, romantizmda inson qanday bo‘lsa, shundayligicha emas, aksincha, qanday bo‘lishi kerak bo‘lsa (ijodkor nazarida) o‘shanday ko‘rsatilar ekan [1,522].

1783-1830-yillar davomida badiiy adabiyotning tarixiy jarayonida muhim o‘rin tutgan romantizm uslubi va bundan avvalgi Uyg‘onish davri adabiyoti g‘oyalarini o‘zaro qiyoslovchi obrazlarda Romantik davrning xarakterli tomonlari ajralib turadi, unda ruh, qalb va his-tuyg‘ularning yondashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu davr ijtimoiy hayotida insoniyat intilishlari va turmush muammolariga urg‘u berish tamoyiliga asoslanadi.

Jahon adabiyotida romantizmning yorqin ifodasi turli ko‘rinishda badiiy ijodga kirib keldi. Nemis yozuvchilari va nazariyotchilarining Iyon maktabi V.G.Vakkenroder, Novalis (Fridrix fon Xardenberg) aka-uka Fridrix va Avgust Shlegellar va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan romantik estetika va dunyoni romantik his etish asoslari nemis romantizmining birinchi avlodi vakillari ijodida o‘zining dastlabki samaralarini berdi (I.L.Tikning “Etik kiygan mushuk” komediyasi, Novalis (Fridrix fon Xardenberg)ning “Tun madhiyalari” lirik turkumi hamda “Genrix fon Ofterdingen” romani va b.). Nemis romantiklarining ikkinchi avlodi (aka-yka Grimmlar maktabi) din, milliy o‘tmish va xalq og‘zaki ijodiga ko‘proq qiziqdi (L.Arniv va F.Brentano to‘plagan “Bolaning sehrli shoxi” xalq qo‘shiqlari to‘plami. Shu davrda lirik she’riyat ham kamol topdi (Y.Eyxendorf). Folklorshunoslik va adabiyotshunoslikdagi birinchi yo‘nalish – mifologik maktabga asos solindi.

Jamiyat va insoniyat taraqqiyoti muammolariga e’tibor qaratish, tarixiy jarayonning ziddiyatliligi, hatto halokatli oqibatlarga olib borishi mumkinligini his etish ingliz romantizmiga xos xususiyatlardir. Dunyoni aql-idrok yordamida qayta qurish mumkinligiga ishonmagan shoirlar avlodi (U.Vordsvort, S.T.Kolrij, R.Sauti) insonning botiniy hissiyotiga chuqurroq kirishni targ‘ib qildilar. Milliy o‘tmish va xalq og‘zaki ijodiga qiziqish Valter Skottning Yevropa adabiyotidagi tarixiy roman janriga asos solishi va o‘rta asrlar hayotidan olingan romantik asarlarning maydonga kelishi bilan yakunlandi. “Londonlik romantiklar” guruhi vakili J.Kits she’riyatida dunyoning va inson tabiatining go‘zalligi o‘z in’ikosini topdi. Kurash va norozilik kayfiyati bilan yo‘g‘irilgan J.N.Bayron va P.B.Shellining romantik ijodi ingliz romantizmi o‘z taraqqiyotining yuksak bosqichiga kirganini namoyish etdi.

Fransiyada klassitsizm an’analari uzoq vaqtgacha o‘z kuchini saqlab keldi. Shu tufayli romantizmning fransuz adabiyoti va san’atiga kirib kelishi katta qiyinchilik bilan kechdi. Faqat XIX asrning 20-yillaridagina romantizm fransuz adabiyotidan o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Ma’rifatparvarlik davri merosi va o‘tmishdagi adabiy an’analar bilan uzviy aloqa, davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolariga qiziqish fransuz romantizmining ajralmas xususiyatlaridir. Fransiyada romantizmning shakllanishi, birinchi navbatda, liropsixologik roman va qissa janrlarining yaratilishi bilan bog‘liq (F.R.Shatobrianning “Atala” va “Rene”, J.Stalning “Deolfina” va “Korina yoki Italiya”, E.P.Senankurning “Oberman” asarlari va b.).

Fransuz romantizmi davrida she’riyat, ayniqsa, gullab yashnadi (A.Lamartin, V.Gyugo, A.Vini, A.Myusse, Sh.O.Sent-Byov va b.). Eski san’at tarafdorlari bilan qizg‘in kurash natijasida

romatik drama janri ham tantana qilib, teatr sahnalaridan munosib o‘rin egalladi (A.Dyuma, V.Gyugo, A.Vini, A.Myusse). Roman janrining psixologik (A.Myusse), tarixiy (A.Vini, O.de Balzak, P.Merime) va ijtimoiy (V.Gyugo, Jorj Sand, E.Syu) turlari maydonga keldi. Romantizm adabiy tanqid sohasida ham o‘z nishonalarini berib, Sent-Byov asoschisi bo‘lgan biografik metodning tug‘ilishiga zamin hozirladi.

Rossiyada romantizmning tug‘ilishi 1812-yil Vatan urushidan keyingi milliy yuksalish davri bilan bog‘liq. Rus adabiyotida romantizm kurtaklari romantik doston janri (masalan, A.S.Pushkin “Janubiy dostonlar”i)ning yuzaga kelishi bilan aniqlik kasb etdi. Bayronning Sharq dostonlari ta’sirida yozilgan rus romantik dostonlarida yangi tasvir tamoyillari ko‘zga tashlandiki, bular bosh qahramon taqdiri tasvir etilganligi, doston matnidagi uslublarning rang-barangligi, ijodkorning tarixiy haqiqatdan chekinib, o‘z badiiy versiyasini yaratganligidir.

Romantizm shu davrda Yevropaning boshqa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Avstriya, Daniya, Shvetsiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha)ga kirib bordi. Milliy mustaqillik g‘oyasining yetakchilik qilishi ma’rifatparvarlik an’analaridan yuz o‘girmagan AQSHda ham romantizmning rivoj topishiga imkoniyat yaratdi. Romantizm, shuningdek, Osiyo mamlakatlari (Hindiston, Xitoy, Yaponiya) da ham o‘ziga xos ifodasini topdi. O‘rta Osiyo mamlakatlarida Romantizm, Yevropa mamlakatlari adabiyoti va san’atidagi singari, izchil oqim sifatida shakllanmadi. XX asrning 10-20-yillarida jadid adabiyotida taraqqiyparvarlik g‘oyalarining targ‘ib etilishi, xuddi shunday jarayon kino (“Qasam”, “Tohir va Zuhra”, “Alisher Navoiy” filmlari) va teatr (“Tor-mor”, “Uyg‘onish”, “Buyuk kanal”, “Sharq tongi” spektakllari) va boshqa san’at turlarida ham kechdi.

Romantizm turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘ldi: Fransiyada ehtiros va shijoat, Germaniya, Avstriyada nolish ohanglari, yo‘qolgan ideallarni qo‘msash tuyg‘ulari, diniy zohidlik yetakchiligi bilan ajralib turadi, Amerikada romantik fantastika, zohidlik kayfiyatidagi asarlar maydonga keldi. O‘zbekiston tasviriy san’atida romantizm tamoyillari XX asrda mungli lirik kayfiyatli Usta Mo‘min (A.Nikolayev), ehtirosga to‘la O.Tatevosyan, A.Volkov, keyinroq V.Melnikov, V.Burmakin, J.Umarbekov, A.Aliqulov asarlarida namoyon bo‘ldi [3,321].

Romantizm, V.Belinskiy formulasiga ko‘ra, “idealga moslab hayotni qayta yaratish”, ya’ni jamiyatda orzu qilingan turmushni tasvirlashdir. Jamiyatdagi real olamni o‘zgartirish, uni go‘zal va mukammal hayot tarzida ko‘rsatishdir, modomiki, hayot qahramonlarining ideal bo‘lgan yuksak, aql kuchiga tayangan kuch-qudrat va mo‘jizakorligini ideallashtirishdir.

Romantizm yozuvchining mutlaq ideallarga erishish hissini uyg‘otadi. Bu metod asosida yaratilgan asarlardagi qahramonlar afsonaviy mo‘jizakor kuch-qudratga ega qilib ta’riflanadi.

Ijodda va hayotda insonparvarlik, kishini qadrlash unga muhabbat va hurmat bilan qarash va uni anglashdir. Bu omillar hamma romantik nomoyandalarning harakatida yetakchi dard darajasiga ko‘tarilgan, abadiy hayot bag‘ishlaydigan “hamma xalqlarda va hamma zamonlarda umumiy bo‘lgan hodisadir” [4, 243-244].

O.Blum va L.Trillinglar Romantizm abadiy va takrorlanib turadigan hodisaga aylandi, – degan fikrni ilgari suradilar va ularning tavsiflariga ko‘ra, yillar o‘tsa-da, romantizm mohiyati tobora chuqurroq aksini topaveradi.

Romantik davrda haqqoniylik faqat xohish-istak bo‘lib qolmay, unga erishish hissini uyg‘otdi. Bu davr vakillari subyektiv hissiyotlar, tabiat xususidagi mushohadalar va ijodiy mayllardan ko‘ra yangi resurslar, texnikalar va sarmoyaga ega mamlakatning iqtisodiy infratuzilmasi haqida qayg‘urish afzalroqdir, degan fikrlardan yiroq bo‘lishgan. Shuningdek, siyosiy va iqtisodiy mavzular atrofidagi adabiy asarlar shu zamonning ustuvor masalalari va

qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan. Xuddi shu tarzda falsafiy asarlar ham o‘z davrining muammo va tashvishlarini yoritib, ijodkorlarning shaxsiy o‘y-fikrlari bilan birgalikda insoniyat tajribasiga asoslangan edi.

Keyinchalik romantizm g‘ayriixtiyoriylik, ijodiylik va o‘ziga xoslik yetishmaydigan madaniy muhitlarga qarshi ijobiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Albatta, romantik davrning ilk va yirik asarlari inson tabiati va fe’l-atvori xususiyatidagi ma’ruzalar, manifestlarni o‘z ichiga olgan edi. S.T.Kolrijning “Adabiy biografiya” (“Biographia Literaria”), P.B.Shellining “She’riyat mudofaasi” (“Defence of Poetry”) va U.Vordsvortning “Lirik balladalar” (“Lyrical Ballads”) va “Muqaddima” (“Preface”)sini bunga misol qilish mumkin. Yuqoridagi nasriy asarlarda romantik shoirlarning dunyoqarashlari naqadar keng qamrovli ekanligi yana bir bor isbot etiladi. Ularning g‘oyalari Uyg‘onish davri namoyandalari fikr-mulohazalaridan tubdan farq qilishi yaqqol seziladi va romantizmga xos asosiy xususiyatlar ishlab chiqilib amalda tatbiq etiladi. Bu kayfiyat, masalan, U.Vordsvortning “Muqaddima” (“Preface”)sida quyidagicha qayd etilgan: “Oddiy narsalar (yozishga loyiq bo‘lgan) g‘ayrioddiy usulda taqdim qilinishi lozim” [5, C.244-256]. Xuddi shu taxlitda, romantiklar eng oddiy kundalik voqealar, his-tuyg‘ular va tajribalarni kutilmagan, noodatiy hollarda ifoda etish nazariyasini ilgari surishdi.

P.B.Shelli ta’kidlaydiki: “Bashariyatning buyuk siri sevgidir. Inson go‘zalligi esa uning aql-idroki, xatti-harakatlari va odamiyligi orqali belgilanadi. Komil inson chuqur mushohadali va shiddatli bo‘lish shart. U o‘zini boshqa odamlar o‘rniga qo‘yib ko‘ra olishi, ularning dard-alami va quvonchlarini o‘ziniki deb qabul qilishi lozim” [6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, romantizm odamlarda g‘ayrioddiy va kutilmagan voqealarga boy asarlar orqali umid uchqunlarini yoqdi. Bu davr ruhi insoniyatni yangicha orzu qilishga, tasavvur qilishga, xayolot osmonida parvoz aylashga, ongli va ongsiz orzu-havaslar o‘rtasidagi chegarani taftish etishga imkon yaratdi [7, C. 5-9.].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekistan, 2001. – B. 522.
2. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 187.
3. [1]Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) M.Tuxliyev., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi - R harfi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2006-2008. – B. 239. – B. 321.
4. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Sharq, 2002. – B. 243-244.
5. Красавченко Т.Н. Уильям Вордсворт-роформатор поэзии и литуратурный критик. “Языкознание и литературоведение”. – С.244-256. https://cyberleninka.ru/article /n/uilyam-vordsvort-reformator-poezii-i-literaturnyy -kritik
6. Шелли Перси Биши. Биография и обзор творчества. https://www.winstein.org/publ/25-1-0-992
7. Холбеков М., Мамарасулова Г. Появление представлений в английской литературе. Иностранная филология: язык, литература, образование. № 3 (2 (67). 2018. – С. 5-9. https://inlibrary.uz/index. php/foreign philology /article/ view/721